

Xalqaro aloqalar bo‘limidagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlovning suhbat bosqichida nomzodga beriladigan savollar ro‘yxati

t/r	Savollar
I. “Boshlang‘ich” toifadagi savollar	
1.	Atom energiyasi nima va u qayerlarda qo‘llaniladi?
2.	Xalqaro tashkilotlar deganda nimani tushunasiz?
3.	Xalqaro atom energiyasi agentligi (<i>MAGATE</i>) nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4.	O‘zbekiston qaysi xalqaro atom tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi?
5.	Davlat xizmatida “xalqaro hamkorlik” atamasi nimani anglatadi?
6.	“Atom energiyasining tinch maqsadlarda qo‘llanilishi” deganda nimani tushunasiz?
7.	Tashqi hamkorlar bilan yozishmalar qanday yuritiladi?
8.	Xorijiy safarni tashkil etish qanday bosqichlardan iborat?
9.	Diplomatik protokolga amal qilish muhimligi?
10.	Delegatsiyalar uchun “yo‘l xaritasi” yoki “protokol dasturi” nima?
11.	Atom energetikasining jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni nimada?
12.	Memorandum va anglashuv protokoli o‘rtasidagi farq nimada?
13.	Atom va issiqlik elektr stansiyalari o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalar?
14.	Xalqaro hamkorlikning ikki shaklini ayting.
15.	Xalqaro uchrashuvni tayyorlashda nimalarga e’tibor berish kerak?
16.	Xalqaro hamkorlarga rasmiy maktub qanday yoziladi?
17.	“Nota” va “notifikatsiya” tushunchalari nimani anglatadi?
18.	Xalqaro forum va konferensiyalar qanday tayyorlanadi?
19.	Xorijiy mehmonlarni kutib olish va kuzatishda qanday jihatlar muhim?
20.	Xalqaro tashkilotlarga axborot yuborishda qanday uslubga amal qilinadi?
II. “O‘rta” toifadagi savollar	
1.	MAGATE bilan qanday xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda?
2.	Atom sohasidagi ikki tomonlama bitimlar qanday rasmiylashtiriladi?

3.	Xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda qanday bosqichlar mavjud?
4.	Xalqaro huquq va diplomatiya bo‘yicha asosiy bilimlaringiz qanday?
5.	Atom energetikasiga oid xalqaro rezolyutsiyalarning huquqiy kuchi qanday?
6.	Xorijiy tashriflarni tashkil etishda qanday muammolar bo‘ladi va ularni qanday hal qilasiz?
7.	Xalqaro yozishmalarda qanday til va uslub talab etiladi?
8.	Yadro sohasida kadrlar tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajriba haqida nima bilasiz?
9.	MAGATEning texnik hamkorlik dasturi haqida qisqacha ayting.
10.	Xalqaro tashkilotlarga rasmiy taklifnoma qanday yuboriladi?
11.	Yadro xavfsizligi bo‘yicha qanday xalqaro standartlar mavjud?
12.	O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasining tinch atom bo‘yicha hamkorligi haqida nima deya olasiz?
13.	MAGATE tadbirlariga tayyorgarlikda xalqaro bo‘limning vazifasi nimada?
14.	Yadro qurolining tarqalmasligi bo‘yicha bitimning mohiyati nimada?
15.	Xalqaro hujjatlarni tarjima qilishda nimalarga e‘tibor beriladi?
16.	Yadro xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konvensiyalar haqida nima bilasiz?
17.	Tashrif vaqtida protokol xatosi yuz bersa, qanday harakat qilasiz?
18.	Atom sohasidagi xalqaro tortishuvlarga misol keltiring.
19.	Xalqaro loyihalarni monitoring qilishda e‘tibor beriladigan jihatlar nimalar?
20.	Yadro infratuzilmasini rivojlantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati qanday?
II. “Murakkab” toifadagi savollar	
1.	O‘zbekistonning atom sohasidagi xalqaro hamkorlik siyosatini qanday baholaysiz?
2.	MAGATE texnik missiyalarining natijalari va ularning amaliy foydasi qanday?
3.	Atom energetikasining geosiyosiy ahamiyati va xalqaro xatarlar haqida fikringiz?
4.	Strategik xalqaro hujjatlar loyihasi qanday tayyorlanadi?
5.	Yadro sohasida xalqaro ekspert baholash (<i>peer review</i>) jarayonining o‘ziga xos jihatlari qanday?
6.	Yadro qurolini tarqatmaslikka oid bitimlar buzilgan holatlarga misol keltiring.

7.	Muzokaralar vaqtida jiddiy kelishmovchilik yuz bersa, qanday yo‘l tutasiz?
8.	MAGATning “g‘arov tizimi” (<i>safeguards</i>) nima va unga a‘zo davlatlar nimalarga majbur?
9.	Yadro materiallarini xalqaro tashishda qanday tartibga amal qilinadi?
10.	Xalqaro loyihada manfaatlar to‘qnashuvi yuz bersa, qanday harakat qilasiz?
11.	Xorijiy sheriklar bilan uzoq muddatli hamkorlikni qanday yo‘lga qo‘yasiz?
12.	Xalqaro inspeksiya qanday o‘tkaziladi?
13.	INIR missiyalari nima va ularning vazifasi nimada?
14.	Strategik hamkorlik bitimlarini ishlab chiqishda nimalar muhim?
15.	Yadro sohasidagi xalqaro siyosatda O‘zbekistonning manfaatlari qanday himoya qilinadi?
16.	Muzokaralar uchun pozitsion hujjat (<i>position paper</i>) tayyorlashda nimalarga e‘tibor beriladi?
17.	Ko‘p tomonlama formatlarda ishtirok etishning xavf va imkoniyatlari nimalar?
18.	Xalqaro loyihalarda shaffoflikni ta‘minlash uchun qanday choralar ko‘rish kerak?
19.	AES loyihalarida xorijiy sheriklarning siyosiy, texnik va moliyaviy ishtirokini qanday muvofiqlashtirasiz?
20.	“Yadro diplomatiyasi” deganda nimani tushunasiz va u qanday qo‘llaniladi?